

KELAJAK TA'LIMI: YANGI AVLOD TAYYORLASH

Xodjaxonova Ra'no Baxodirovna

Yakkasaroy tumani 127-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi direktori.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14702600>

Annotatsiya. Ushbu maqolada yosh kelajak avlodni tayyorlash, uning muhimligi haqida atroflicha ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: yosh avlod, pedagogik texnologiyalar, kadrlarni tayyorlashga, imkoniyatlar.

FUTURE EDUCATION: PREPARING A NEW GENERATION

Abstract. This article provides detailed information about the preparation of the young future generation and its importance.

Keywords: young generation, pedagogical technologies, training of personnel, opportunities.

ОБРАЗОВАНИЕ БУДУЩЕГО: ПОДГОТОВКА НОВОГО ПОКОЛЕНИЯ

Аннотация. В статье представлена подробная информация о подготовке молодого будущего супруга и ее важности.

Ключевые слова: молодое поколение, педагогические технологии, обучение, возможности.

Shiddat bilan rivojlanayotgan bugungi davr insonga moddiy extiyojlarini qondirish kabi birlamchi vositalar safiga ilm hamda tarbiyani xam qo'shdi. Shu tufayli inson taraqqiyot sari dadil qadam qo'ymoqda. Koinotni zabt etishi ham aynan ilmning mahsuli ekanini bugun hech kim inkor eta olmaydi. Mustaqil mamlakatimizda insoniyatni bag'rikenglik, poklik va mexr-oqibatga chorlovchi muqaddas dinimizni asrab-avaylashga, yosh avlodni xalqimizning milliy va diniy qadriyatlariga hurmat-ehtirom ruxida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Imom Buxoriy aytganidek: "Dunyoda ilmdan boshqa najot yo'q va bo'lmagay". Xar qanday orzu va maqsad ham ilm hamda tarbiya bilan amalga oshadi.

Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo'lidan ma'lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo'lishi o'sha davlatda yoshlar ta'lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e'tibor darajasiga chambarchas bog'liq. Shu ma'noda, O'zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Bu borada Shavkat Mirziyoyev tomonidan ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi sa'y-harakatlarni tizimli asosda yo'lga qo'yish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusning ilgari surilishi O'zbekiston tarixida yoshlar ta'lim-tarbiyasi bo'yicha yana bir yangi bosqichni boshlab berdi.

Shunday ekan, bu mashaqqatli yo'lda sobitqadam bo'lib, bugunning imkoniyatlaridan keng foydalangan holda astoydil harakat qilaylik.

Bugungi kunda yoshlar orasida keng joriy etilgan ushbu besh tashabbusga ko'ra, hududlardagi madaniyat markazlari, musiqa va san'at maktablarining moddiy-texnik bazasi va ulardan foydalanish holati keskin yaxshilandi, yoshlarning qiziqishidan kelib chiqib, qo'shimcha yana 1,5 mingta to'garak tashkil etildi. Hatto eng chekka qishloqlardagi madaniyat markazlarida ham badiiy-havaskorlik jamoalari, yoshlar teatr-studiyalari va "Yoshlar klublari" faoliyati yo'lga qo'yildi.

Ishlab chiqarish kadrlar tayyorlash tizimida buyurtmachi va iste'molchi funksiyalarini bajarib, kerakli yuksak darajalarda va tegishli sohalar uchun kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonida faol ishtirok etadi. Ishlab chiqarishning ehtiyojlari kadrlar tayyorlashga bo'lgan ijtimoiy buyurtmani shakllantiradi, kasb - hunarga tayyorlashning maqsadi, vazifasi va mazmunini aniqlaydi. Malakaviy talablarni ilgari suradi, yangi texnologiyalar va o'qitish shakllarini tanlab olish shartlarini belgilaydi. Ishlab chiqarish buyurtmachi sifatida kadrlarning umuman, kasb - hunarga tayyorlash tizimining sifati, darajasi va raqobatbardoshligini baholab beradi. Ta'lim mazmunini isloh qilib, uni jahon ta'lim standartlariga muvofiqlashtirishda ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etishga alohida e'tibor berilgan.

Mustaqil O'zbekiston taraqqiyotida hal qiluvchi muammolar: xalqimizning ming-ming yillik qadriyatlarini, pedagogik merosini o'rganish va ta'lim-tarbiya jarayonini milliyashtirish, jamiyat taraqqiyotida ma'naviyatning ustivorligini ta'minlash va ma'naviy tarbiya nazariyasini, amaliyotini takomillashtirish; yoshlar ongiga milliy mafkura, milliy g'oyani singdirish, vatanparvarlik tarbiyasini yangi mazmun va metodikasini ishlab chiqish; jahon andozalariga mos ta'lim tizimini yaratish, ilg'or pedagogik tajribalarni ommalashtirish, pedagogik kadrlarni hozirgi davr talabi asosida ta'lim-tarbiya ishiga tayyorlash, pedagogik texnologiya bilan qurollantirish kabilar pedagogika fanining dolzarb vazifasi bo'lib qoldi

Fan, texnika va texnologiyaning jadal rivojlanishi sharoitida o'qitish tizimiga quyidagi talablar qo'yiladi:¹

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoevning Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasi. Toshkent. 2020 yil 29 yanvar.

a) individual va mustaqil ishlash, ilmiy-texnik axborot bilan ishlash malakalarini rivojlantirish;

b) original va nostandart qarorlar, ishchanlik - qobiliyatlarini rivojlantirish;

v) o'qitishni individuallashtirish (o'qishga turli qobiliyatga ega bo'lgani uchun);

g) bilim harakatchanligi, tanqidiy fikrlashganda moslashuvanlik va ijod, ishlab chiqarishning zudlik bilan o'zgaruvchan sharoitiga mos epchillikni shakllantirish.

Bayon etilgan, bir tomondan pedagogik texnologiyaning sodir bo'lish zaruriyatini tasdiqlasa, ikkinchi tomondan u ilmiy texnik taraqqiyot jadallashuvining mahsuloti ekanligini namoyish etadi. Shu sababli, ilmiy texnik taraqqiyot tezlashuviga 2...3 va undan ortiq fanlar ulanishlarida paydo bo'ladigan yangi fanlarning ta'sirini alohida ta'kidlash zarur bo'ladi.

Pedagogik texnologiya ham ikkita fan «pedagogika» va «texnologiya»lar ulanishida paydo bo'lgan yangi fanlardan biridir. Pedagogik texnologiya ilmiy texnika taraqqiyoti jadallashuvi talabalari darajasida kadrlar tayyorlashuvi talablari darajasida kadrlar tayyorlashni ta'minlash imkoniyatini yaratdi. Pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismlari tegishli davr talablari asosida ham paydo bo'ladilar.

“Pedagogik texnologiya bilimlarni o'rganishh yaxlit jarayonida ta'lim shakllarini optimallashtirish, texnikaviy, insoniy imkoniyatlar, ularning o'zaro xamkorligi amalga oshirish metodlar tizimidir”,-degan xulosaga kelinadi. Uzoq vaqt xukm surgan, kommunistik g'oyaviylikka asoslangan byurokratik pedagogika ta'lim-tarbiya jarayoniga ilmiy yondoshish yo'llarini berkitgan edi. Ayniqsa rivojlangan mamlakatlar tajribasidan foydalanishh man etilgan edi.

O'z navbatida, O'zbekistondagi barcha o'zgarishlarning negizi hisoblangan ta'lim-tarbiya tizimida ham tub islohotlar olib borilmoqda. Ayni vaqtda ta'lim, shu jumladan, ijtimoiy soha uchun xarajatlar miqdori davlat byudjeti xarajatlari umumiy qiymatining yarmidan ko'prog'ini tashkil etmoqda. Tabiiyki, har qanday davlat ham bunday katta xarajatlarni ko'tara olmaydi.

Ammo qanchalik og'ir bo'lmasin, buning uchun zarur mablag' va resurslar yurtimizda izlab topilmoqda. O'zbekiston rahbari mazkur xarajatlarni xarajat emas, balki kelajak uchun qo'yilgan eng samarali sarmoya deb hisoblab, ta'lim darajasi va sifati har qanday davlatning istiqbolini belgilab beradigan muhim omil ekanini ta'kidlamoqda.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, hozirgi kunda davlatimiz tomonidan yoshlarning porloq kelajagini yaratishga qaratilgan keng ko'lamlı siyosatidan, yaratilayotgan keng imkoniyatlardan, samarali islohotlardan foydalangan holda yurtimiz yoshlari barkamol avlod

sifatida, har bir o'g'il-qiz avvalo, chet tilini mukammal bilishi, kompyuter sohalarini chuqur o'rganishlari, internetdan foydalana olishi, milliy va diniy qadriyatlarga amal qilishlari, ilmiy izlanishlar olib borishlari, fidoyi Yurt farzandi bo'lishlari lozim. Bunday yoshlar yurtimiz tinchligini, osoyishtaligini ta'minlay oladigan insonlar bo'lib, istiqbolni belgilashadi.

Vatanimizning buyuk kelajagini qurish, oldimizda turgan katta-katta muammolarni yechish, mustaqilligimizni himoya qilish, hayotda milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg'unligi tamoyiliga amal qilib yashashdek muhim vazifalarni yoshlarimiz o'zining muqaddas burchi deb bilayotgani, ayniqsa, e'tiborga sazovordir. Barkamol yoshlarni tarbiyalashdek porloq niyatimiz uchun bizda ma'naviy asos bor. Mana shu ma'naviy meroslardan unumli foydalangan holda, o'zbek yoshlari har qanday sohada yurtimizni dunyo tan oladigan Yurt sifatida himoya qilishlariga hamda har doim "O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmasligi"ga ishonamiz. Zero, yoshlar–davlat va jamiyatning hal qiluvchi kuchi, ertasining egalari. Ular tom ma'noda, O'zbekistonning eng katta boyligi, bebaho xazinasidir.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoevning Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasi. Toshkent. 2020 yil 29 yanvar.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 5 iyuldagi PF-5106 – son farmoni "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlari ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida" Toshkent shahri, 2017 yil 5 iyul.
3. "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati asoslari" to'g'risidagi qonun. 1991 yil.
4. Karimov. I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni – xalq, millatni – millat qilishga xizmat etsin. T.: "O'zbekiston", 1998, 17 – bet.